

74

IV BOB.

LMS – TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR



1. Google Classroom platformasiga kirish qanday amalga oshiriladi?
2. Google Classroom platformasida kod nima uchun kerak?
3. Google Classroom platformasida **Папка курса** bo'limida qanday ma'lumotlar berilgan?
4. Google Classroom platformasida o'quv materiallari va topshiriqlarni olish uchun qaysi bo'limga kiritiladi?
5. Google Classroom platformasida **Лента** nima uchun ishlataladi?

26-dars. AMALIY ISH.

GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASIDA TA'LIM OLİSH

AMALIY TOPSHIRIQ



1. O'z akkauntingiz bilan Google tizimiga kiring va Google Classroom platformasiga o'ting.
2. O'qituvchingiz tomonidan berilgan kod (masalan, 2ubiu5p) yordamida o'quv kursiga kiring.
3. Har bir mavzuda berilgan o'quv materiallari, amaliy topshiriq, savol va nazorat testlari bilan tanishib chiqing.
4. Har bir mavzuda berilgan kurs elementlari (masalan, nazariy material, video, audio va h. k.) bilan tanishib chiqing. O'rganganlaringizni daftaringizga qisqacha yozib oling.
5. Kurs tarkibida berilgan amaliy topshiriq va testlarni bajaring hamda o'z ishlaringizni yuboring.
6. Yuborgan ishlaringizni qabul qilingan yoki qilinmaganligini tekshirib ko'ring. O'qituvchi tomonidan ishingiz qanday baholanganligini ko'rib chiqing.
7. Kursdagi boshqa foydalanuvchilar bilan tanishib chiqing.

QIZIQARLI FAKT**Google kompaniyasi tarixi**

Sergey Brin va uning do'sti Larri Peyj Stenford universitetida o'qib yurgan paytlarida Googleni yaratishdi. Boshqa qidiruv tizimlaridan farqli o'laroq, bu loyiha turli saytlar o'rtaсидаги aloqani tahlil qilish imkoniga ega edi. Mazkur tizim PageRank nomini oldi va loyihalari tufayli Brin va Peyj dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi.

Google kompaniyasi rasman 1998-yilning 4-sentabrida Kaliforniya shtatida, Menlo-Parkdagagi garajda ro'yxatdan o'tkazilgan. «Google» nomi yuzta nolli 1 raqamini anglatuvchi «google» so'zidan olingan. Brin va Peyj ajoyib dasturchi bo'lishlariiga qaramay, HTML dizayni ustida ishlash ularning ojiz jihatlari edi. Shu sababli, hozirgi kunga qadar Googlening bosh sahifasini faqat qidiruv maydoni va tugmacha singina tashkil etadi.

Keyinchalik tizim Gmail pochtasi, Google Maps xaritalari va bir-biriga integratsiyalashgan o'nlab mahsulotlar bilan boyitildi. Internetdan foydalanuvchilarning taxminan 82 foizi Googleni qidiruv tizimi sifatida tan oladi. Qanday qurilmaga murojaat qilmang, Googlening mahsulotiga duch kelasiz. Bu, bir tomondan, login va parol yordamida tizimga bir marta kirib olgach, boshqa istalgan mahsulotlarga o'tish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Google tizimi foydalanuvchi to'g'risida Facebook ijtimoiy tarmog'i kabi juda ko'p ma'lumotni yig'a oladi.

"Asosiysi – diqqatni foydalanuvchiga qaratish, qolgani esa asta-sekin maromiga tushaveradi!" Bu shior Google kompaniyasining bosh falsafasidir. Aynan shu tufayli Google bugungi mashhurlik darajasiga erisha oldi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.





V BOB. MOOC – OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURSLAR

O'QUV MAQSADI

- Bu bobda:
 - MOOC haqida tushunchaga ega bo'lasiz va:
 - MOOCning ishlash prinsipi;
 - MOOCning afzalliklari va kamchiliklari;
 - MOOCning turlari;
 - MOOC platformalari haqida bilib olasiz.

KO'NIKMA

- Bob yakunida Siz:
 - MOOC platformasida ro'yxatdan o'tish;
 - MOOC platformasida kursga a'zo bo'lish;
 - MOOC platformasida kurs materiallari bilan ishlash;
 - MOOC platformasida onlayn va offlayn topshiriqlarni bajarish;
 - MOOC platformasidan sertifikatni yuklab olish ko'nikmalariga ega bo'lasiz.

VOSITALAR

- Coursera;
- Udemy;
- EdX;
- Khan Academy;
- Лекториум.